

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-2/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

<https://buxdu.uz>

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир ҳайати:**

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.
Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Жугинисов Тангирберген Исаевич, б.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.
Рўзбоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№2/4 (98), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. — 207 б. — Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими — Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

<https://buxdu.uz>

МУНДАРИЖА ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abduvokhidova H. Translation of agricultural terms	5
Artikova N.S. Dialogik nutq to'liqsiz gaplarni yaratuvchi omil sifatida	7
Artikova N.S. Methods of research of binuclear non-verbal sentences	10
Atajanova N.F. Xorazmlik shoiralar ijodidagi mumtoz adabiy an'analarning davom ettirilishi xususida	14
Azizova M. Comprehensive understanding english language in ESP classes	18
Babakulova L.R. Terminology and translation problems in teaching English	21
Bobojonova N.J. Categorization in english cognitive linguistics	23
Daliev M.X. Semantic and cognitive approach to the modern english terminology	26
Daminov N.K. Formation of resistance to stress in the process of simultaneous interpreting	28
Davletova D.N. Fe'lli kollokatsiya (turg'un birlikma) tushunchasi va uning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi	31
Erdanova Z.A. Description of human professional activity in English and Uzbek phraseology	35
Eshniyozova G.H. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida qo'llanilgan badiiy san'atlarning lingvopoetikasi	37
Haydarov A.A., Xayrullayeva G. Turli sistem tillarda so'z ma'nolari kuchaytirishning leksik vositalari	39
Jalilova L.J., Axmedova M.F. J.K. Roulingning "Garri Potter" asarida yosh psixologiyasi	42
Kadirova A.Kh. Qualification and skills required of a simultaneous interpreter	45
Kasimova S.M. About the mechanisms that provide understanding of the original text while speaking text in the target language	47
Khaydarova L. The description of social life and the usage of syntactic stylistic devices in the novel "Hard times" by Charles Dickens	50
Mirabdullayeva S., Abduvokhidova H. Ingliz va o'zbek tillarida metaforalarning tavsifi, ishlatilishi va ilmiy ahamiyati	53
Narzulaeva D.B. Miracles of the Holy Koran	55
Niyazova M.Kh., Tuxtayeva M.A. The use of proverbs in the speech of characters by english and uzbek writers	58
Niyazova M.X., Temirova M. Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarni o'rganishning nazariy asoslari	60
Osmanov M.T. Cognitive and linguistic factors in improving reading comprehension on the base of illustrated texts	62
Polvannazirova S.X. Kontrastiv lingvistika va tarjimaning o'zaro munosabati	64
Qarshiyeva Sh.T., Yuldashev A.A. O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy etimologiyasi	67
Qobilova N.S., Barotova N.Sh. Linguistic and cognitive features of negative attitudes in english and uzbek languages	69
Qobilova N.S., Nurullayeva U.B. Frazeologik birliklar xalqning milliy-madaniy xususiyatlari oynasi sifatida	72
Qodirova H.X. Ingliz va o'zbek tillarida soxta diskursning pragmatik parametrlari	76
Qosimova F.X., A'zamjonova M.S. Ingliz va o'zbek lingvokulturologiyasida "Baxt" konsepti	78
Ochilova N. Tarjimada sinonimik qatordagi so'zlardan foydalanish muammolari	81
Raximova M.A. Termin va atamalar haqida ayrim mulohazalar	85
Raxmatova M.M., Aslonova Sh.Z. Inson kommunikatsiyasining hosil bo'lishi jarayonida diskursning roli	88
Saidova M.U., Jamolova M.B. The nature of mythology in literature	91
Saidova M.U., Zabiye V.Kh. Closer view to task-based language teaching	94
Saidova Z.B. Normurod Norqobilov qissalaridagi metaforaning lisoniy xususiyatlari	98
Shirinqulova Sh.M. Zamonaviy atamashunoslik, uning nazariy asoslari va tibbiy atamashunoslikni shakllantirish	102
Shodiyeva M.N. Xitoy tilida dehqonchilikka oid leksikalar va ularning xususiyati	104
Toirova U.S. Normurod Norqobilovning "Dashtu dalalarda" asarida bo'ri zoosemasi	107

<https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-kontekstualnogo-analiza-ellipticheskikh-predlozheniy-na-materiale-angliyskogo-yazyka/viewer>

6. Saidovna, V. F. (2021). The Functional Essence of Some Pilgrimage Terms in The English Language. Eurasian Research Bulletin, 3, 1-6. <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/259>
7. Saidovna, V. F. (2022). The Usage of Pilgrimage Tourism Terms in the English Language. International journal of inclusive and sustainable education, 1(4), 66–70. Retrieved from <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/170>
8. Al-Eyrani, A.A. (2007). Refusal strategies by Yemeni EFL learners. The Asian EFL Journal Quarterly, Volume 9, Issue 2, 19–34. http://www.asian-efl-journal.com/June_07_aaa.php.
9. Beebe, L. M., Takahashi, T., & Uliss-Weltz, R. (1990). Pragmatics transfer in ESL refusals. In R. Scarcella, E. Anderson, & S. Krashen (Eds.), *Developing communicative competence in a second language* (pp. 55-73). New York: Newbury House.
10. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Chen, S. (1996). *Computer Assisted Language Learning in Asian Language Teacher Training*. The Proceedings of the Biennial Conference. Asian Studies Association of Australia. La Trobe University, Melbourne.
12. Hong, W. (2011). Refusals in Chinese: How Do L1 and L2 Differ?: Refusals in Chinese: How Do L1 and L2 Differ? *Foreign Language Annals*, 44(1), 122–136.
13. Lakoff, Robin (1975). *Language and Woman's Place*. New York: Harper & Row, Publishers
14. Maier, Paula (1992). "Politeness Strategies in Business Letters by Native and Nonnative English Speakers," *English for Specific Purposes*, 11, 189-205.
15. Thomas, J., (1983). Cross-cultural pragmatic failure. *Applied Linguistics*, 4, 91–112.

UO'K 81'373

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR XALQNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI OYNASI SIFATIDA

N.S.Qobilova, PhD dotsent, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro
U.B.Nurullayeva, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Xalqning milliy-madaniy ongini aniqlashda va ularni o'rganishda xalqning, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va maishiy tajribasini aks ettiruvchi frazeologik birliklar muhim rol o'ynaydi. Frazeologik birliklarni o'rganish talabalarga o'sha tilda so'zlashuvchilarning hayotining ushbu tomonlarini tushunishga imkon beradi, bu esa milliy o'ziga xos komponentlar haqidagi bilimning yaxshilanishiga va millatlararo muloqotni o'rnatishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, milliy va madaniy xususiyatlar, lingvomadaniy jihat, idiomalar.

Аннотация. Важную роль в определении национально-культурного сознания народа и его идентификации играют фразеологизмы, отражающие культурный, исторический, социальный и бытовой опыт народа. Освоение фразеологических единиц позволяет изучающим иностранный язык постигнуть вышеупомянутые аспекты жизни носителей языка, что способствует углублению знаний национально-специфического компонента и установлению межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: фразеологические единицы, национально-культурная специфика, лингвокультурологический аспект; идиомы.

Abstract. An important role is determining the national and cultural consciousness of the people and their identification is played by the phraseological units that reflect cultural, historical, social and everyday experience of the nation. Learning phraseological units allows students to comprehend these aspects of the life of native speakers, which contributes to the improving knowledge of the national-specific component and the establishment of intercultural communication.

Key words: phraseological units, national and cultural nationality, linguistic and cultural aspect, idioms.

Frazeologik birliklarni haqli ravishda tilning milliy madaniy o'ziga xos xususiyatlarining eng yorqin ko'rinishlaridan biri deb ta'kidlash mumkin. Frazeologiya bir–biri bilan uyg'un holda mavjud bo'lgan tilning universal va idioetnik komponentlarining noyob birikmasini o'zida namoyon etadi. Shubhasiz tilning o'ziga xosligi va milliyligi ko'plab til sathlarida : fonetika, morfologiya ,

grammatika, leksikologiya kabi til sohalarida ham namoyon bo'ladi. Ammo farzeologiya bu xususiyatlar hammasidan ham yorqinroq namoyon bo'lgan. Axir aynan frazeologiyada "asl hodisa", "tilning sof milliy xususiyatlari" kabi epitetlar mustahkamlangan.

Frazeologiya bilvosita millatning dunyoqarashini, ijtimoiy tartibini, davr mafkurasini o'z ichiga olgan holda o'z davrining oynasi sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shu sababli, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida frazeologik birliklar va idiomatik iboralarni o'rganish va tahlil qilish juda ham qiziqarli va foydali usul hisoblanadi. Til o'rganuvchilar o'zlari o'rganayotgan tilning kelib chiqishi, xalqning madaniyati haqida, ularning yashash tarzi haqida ozgina bo'lsada ma'lumotga ega bo'ladilar. Ularning ko'z o'ngida o'sha davr qahramonlari va ularning hayoti tas iri gavdalanadi.

Frazeologik sathda millatning tarixi va madaniyati bilan tilning aloqasi ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Frazeologiya tilning shunday bir sohasiki, u o'z davrining Grammatik shakllaridan, davr tomonlari va adabiy normalar tomonida rad etilgan, ishlatilmay qolib ketgan qadimiy so'zlarni saqlaydi. Ular faqat shaklni saqlab qolmasdan, milliy urf-odatlar, e'tiqodlar, tarixiy afsonalar, marosimlar, hayot tamoyillari kabi mazmunni ham saqlaydi.

Frazeologik birliklarning kelib chiqishi xalqning hayoti va tarixi bilan chambarchas bog'liq. Muhim frazeologik birliklarning asosini semantikasida ma'lum bir ijtimoiy faktlar aks ettirilgan erkin iboralar tashkil qiladi. Masalan o'zbek tilida turli xil frazeologizmlardan foydalaniladi. Iboralar tarkibidagi so'zlar yaxlit bir holda bitta ma'noni anglatadi.

O'zbek tildagi "alifni kaltak deyolmaydi" iborasi "g'irt savodsiz", "hech narsa bilmaydi" degan ma'nolarni bildiradi. Bu frazeologik iboradagi so'zlar alohida ishlatilganda boshqa ma'nolarni bildiradi. Bu ibora orqali xalqning madaniyati, tarixi, yashash tarzidan boxabar bo'lish mumkin. Qadimgi zamonlarda bolalar madrasalarda ta'lim olgan, madrasalar maktab vazifasini bajargan davrlarda ularga arab tili alifbosidan darslar o'tilgan, tolibi ilmlar arab tilini o'rganishgan. O'rta Osiyo tarixiga oid ko'pchilik asarlar, madaniyatning yorqin namoyondalarining asarlari arab tilida yozilganligidan shuni bilib olish mumkinki, arab tilining o'rni bizning madaniyatimizda salmoqli o'rinni egallagan. Shu sababli bolalarga ham yoshligidan arab alifbosi o'rgatilgan. Arab alifbosidagi "alif" harfi "kaltak"- daraxt, buta kabilarning barg-butoqsiz uzun shoxi, urish savash uchun ishlatiladigan maxsus yog'och, tayoq, shakliga o'xshatilgani uchun "bilimsiz, savodsiz" kishilarni kinoya qilgan holda, "alifni kaltak deydi", iborasini ishlatishgan.

Ingliz tilidagi idiomatic iboralar ham til ichida o'z vazifasi bilan qiziq, chunki ular o'z tarkibidagi har bir so'z nimani anglatishidan ko'ra ko'proq narsani bildiradi. Idiomalar majoziy ma'noda kelsa ham, ular tushunilganidan keyin har qanday tilning aniq va o'ziga xos xususitai bo'lib xizmat qiladi. Ular so'zlovchiga o'z fikrlarini bildirishga, muayyan his'tuyg'ularni ifodalashga yordam beradi. Idiomalar bizga so'zlovchining his tuyg'ulari va qarashlarini tushunishga imkon beradi. Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Keling uchta tanish ingliz maqolini ko'rib chiqaylik.

Burning the midnight oil shunday iboralardan biri. Bu ibora elektr yoritqichlar paydo bo'lishidan ancha oldin tungacha ishlashni anglatadi. Biror kishi chiroq nuri bilan ishlaydi yoki nima uchundir tayyorgarlik ko'radi. Bu frazeologik birlikning kelib chiqishi noaniq bo'lishi mumkin, lekin ishlatilishi aniq va ravshan. Hayotimizning qaysidir nuqtalarida, ish yoki maktab uchun hammamiz kechgacha ishlagan yoki o'qigan paytimiz, vazifamizni bajarib bo'lgunga tonggacha uxlamagan davrlarimiz bo'lgan.

Yana bir shunday iboralardan biri **to feel under the weather** idiomasi ildizi dengizlarga borib taqaladi. Bu dengizga oid uboraning kelib chiqishi dengizchining kasal bo'lgan vaqtiga ishora qilishi mumkin. Ular sog'ayishi uchun paluba ichkarisiga yuborilgan. Dengizchi tom ma'noda "havodan pastda –under the weather" bo'lgan deyish mumkin. Hozirgi vaqtda esa biz "under the weather" deyilganda inson o'zini yaxshi his qilmayotganini yoki kasalligini tushunamiz.

It's all greek to me iborasini yunonchaga tushuntirish qiyin bo'lishi mumkin. Biroq ingliz tilida so'zlashuvchilar bu osonlikcha tushunib bo'lmaydigan narsani ifodalashini tan olishadi. Qizig'i shundaki, kelib chiqishi qadimgi yunon tilini tarjima qilishda qiynalgan o'rta asr lotin qabilalariga borib taqaladi. Shekspir o'z asarlari orqali bu iboraning avloddan avlodga o'tib kelishini ta'minladi va biz hali ham bu iboradan foydalanamiz. Agar yunonlar shunga o'xshash vaziyatlarda nima

deyishlari mumkinligi haqida savol tug'lsa: Greek so'zini o'rniga Chinese so'zini ishlatish mumkindek tuyuladi.

Ingliz tilidagi frazeologizmlarning ma'no xususiyatlari ko'p qirralidir. Ingliz tilshunoslari o'zlarining ilmiy asarlarida, idiomalarga doir kitoblarida shu idiomalarni guruhlarga bo'lganlar. Lekin klassifikatsiya darajasida emas. Tildagi frazeologizmlarning klassifikatsiya qilishning an'anaviy pirinstipi, ularning kelib chiqishiga asoslangan "tematik" klassifikatsiyadir. Frazeologik sistemani frazeologik birliklar komponentlari o'rtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Shunday qilib, frazeologik mikrosistema ikkita bir-biriga bog'liq sistemadan tashkil topgan o'zaro munosabatlar sistemasi va tuzilish sistemasi.

Frazeologiya haqida, aynan idioetnik frazeologiya, ya'ni tilning milliy o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi sohasi haqida gapirganda, shuni ta'kidlash lozimki uning o'rganish predmeti tilshunoslikning ichki va tashqi chorrahasida yotadi. Ular afsonalar, xurofotlar, urf-odatlar, marosimlar, yo'qolib ketgan xalq o'yinlari, yaroqsiz holga kelgan hunarmandchilik, qo'shni qishloqlar o'rtasidagi raqobatlar, faqat bir qishloqda yoki oilada sodir bo'ladiga ahamiyatsiz hodisalar kabi faqatgina milliy-xususiy va madaniy-tarixiy omillardan iborat bo'ladi. Barcha psixologiya, shaxsiy yoki ijtimoiy hayot, ajdodlarimizning butub behisob tarixi avlodlarga meros bo'lib qoldi.

V. N. Teliya o'z monografiyasida "Tilning frazeologik tarkibi ligvomadaniy jamoa o'zining milliy o'zligini anglashni ko'rsatib beruvchi ko'zgudir" deb ta'kidlab o'tadi. U yana shuni ham aytib o'tadiki, frazeologizmlar va idiomalar tarkibidagi obrazlar va so'zlarning o'zaro bog'liq ma'nolari o'sha lingvomadaniy hamjamiyat uchun shaffofdir, chunki ular shu jamoaga xos milliy dunyo tasvirini aks ettiradi va shu tilning lug'at tarkibidan ko'ra, uning milliyligini yorqinroq namoyon qilishiga imkon beradi.

V. N. Teliya idiomalarning madaniy va milliy o'ziga xosligi madaniyat nuqtai nazaridan izohlashni taklif qiladi va frazeologik birliklarning mohiyatan milliyligini tan oladi. Idiomalar ona tilida so'zlashuvchi xalqning milliy dunyo tasviri bilan to'g'ridan tog'ri bog'liq bo'lgan obrazli yo'nalganlikka xos o'lganligi uchun, ular asosan milliy-madaniy konotatsiyaga ega. Frazeologiya tarkibidagi milliy-madaniy komponentni bilish uchun siz birinchi navbatda milliy madaniy o'ziga xoslik deganda nima tushunilishini aniqlab olishingiz kerak. Bu masalaga ikki xil qarash mavjud: birinchidan, milliy-madaniy komponent idiomalar tarkibidagi realia so'zlar ma'nosida kuzatiladi. Bunday nuqtayi nazar o'rganilayotgan muammoning mavzu doirasini toraytiradi. Biroq milliy madaniyat tushunchasidagi til hodisalarining doirasini maksimal darajada keng ochib beradigan qarama-qarshi pozitsiya ham mavjud.

Shunday qilib frazeologiya bo'yicha tadqiqotlarda, ularning milliy xususiyatlarini tushunishda tubdan farq qiluvchi ikki xil qarashni ajratish mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki ko'pgina holatlarda frazeologizmlarning milliy madaniy o'ziga xosligi boshqa bir tilga nisbatan aniqlanadi: bunday yondashuvni qiyosiy yoki chog'ishtirma yondashuv deb atash mumkin. Bunday yondashuvda milliy –madaniy xususiyatlar mavjudligi tegishli madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari orqali aniqlanadi va shunda ham barcha tillararo farqlar milliy o'ziga xoslik ko'rsatgichlari hisoblanmaydi, faqatgina madaniy terminlarni o'z ichiga olgan farzeologik birliklar bundan mustasno.

Frazeologik birliklarning milliy xususiyatlarini tushunishning yana bir tamoyili ona tilida so'zlashuvchilarning milliy ruhi va ona tilining milliy belgisi boshqa tillar bilan taqqoslanmaydigan ayrim birliklari bilan bog'liq. Har bir tilda o'sha tilda so'zlashuvchi "o'zining va faqat o'zining" milliyligini ko'rsatuvchi frazeologik birliklari mavjud deb, taxmin qilinadi. Frazeologik birliklarning milliy o'ziga xosligining muhim ko'rsatkichi frazeologizmlarning alohida komponentlarning ma'lum bir belgisidir. Masalan, frazeologizmlar tarkibidagi milliy xarakterga xos shaxs nomlari va ularning hosilalari, xalq og'zaki ijodidagi realiyalar, so'z-realiyalar, arxaik komponentlar mavjudligi. Ushbu maqolada biz, milliy tarkibiy qismlarga ega frazeologik birliklarga alohida e'tibor qaratishga harakat qildik. Ko'pgina tasniflar va nuqtai nazarlarni o'rgangan va tasnif qilgan holda, fikrimizcha, idioetnik frazeologik birliklarning muhim manbalarini anqladik.

Shunday qilib ma'lum bir turdagi u yoki bu tildagi o'ziga xoslikni ifodalaydigan iboralar to'plamining asosiy to'plami orasida quyidagi guruhlar diqqatga sazovordir:

1. Onomastik leksika (o'zbek tilida *Oti bor Alpomish*-jasoratli, mard; *Aflotun miya*-juda aqli donishmand insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ingliz tilida *According to the Cooker*-aniq, mutlaqo to'g'ri)

2. Mashhur appelyativlar (ingliz tilida *Jack of all trades*-uddaburon, ko'pgina ishni qila oladigan.)

3. Etnografik realiyalar (*barmog'ini bigiz qildi*-niqtab ko'rsatdi; ingliz tilida *to make hamburgers*- birovni ayovsiz jazolash)

4. Tarixiy personajlar, sanalar va voqeliklar (ingliz tilida *the curse of Scotland*, o'yin uchun o'ynaladigan kartalarga nisbatan ishlatiladi., *Achille's hill*-Axilles tovon, yagona zaif joy, tomon)

5. Adabiy frazeologik birliklar (ingliz tilida *paint the lily*- biror narsani yaxshilashga harakat qilmoq)

6. Xalq e'tiqodlari, rivoyatlari, urf-odatlar, marosimlari (*halcyon days*-tinch, osoyishta kunlar, *have kissed the Blarney stone*-xushomadguy bo'lmoq)

Yuqorida aytib o'tilgandek, til xalqning hayot faoliyati bilan chambarchas bog'liq, u bu tilda so'zlashuvchilarning manfaat doirasi bo'lgan hamma narsani: tabiat, hayot tarzi, tarix va an'analarni aks ettiradi. Odamlarning turli guruhlari atrof-muhit va madaniy muhit hodisalarini turlicha izohlaydilar va idrok etadilar. Boshqacha qilib aytganda, insonlar o'zlarini o'rab turgan dunyoni qanday idrok etishsa, atrofdagi madaniyatning xususiyatlarini ham shunday qabul qilishadi. Zamonaviy tilshunoslikda til inson aqliy faoliyatining bir shakli, uning tabiati va ruhiy olamining bir qismi sifatida qaraladi. Har bir madaniyatda odamlarning xulq-atvori, insonning muayyan vaziyatlarda nima qilishi kerakligi haqidagi yaxshi tasdiqlangan g'oyalar bilan boshqariladi. Har bir til milliy xususiyatga ega. Shu bilan birga, til nafaqat tabiiy sharoit va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini, balki so'zlashuvchining milliy xarakterining o'ziga xosligini ham aks ettiradi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, frazeologizmlar o'z xalqining tarixi, an'analari, urf-odatlar, turmush tarzi ba'zan xarakterini saqlaydigan til xazinasidir. Bu uning madaniyati va mentalitetining o'ziga xosligini aks ettiradi. Aynan shuning uchun, frazeologizmlarni o'rganish va tahlil qilish xorijiy tilni o'rganishning ajralmas qismi bo'lib, uning tarixi va madaniyatini shuqur o'rganishga imkon beradi va madaniyatlararo muloqotni o'rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кобилова Н. Художественный психологизм и принцип эпического изображения. Международный академический вестник Учредители: Автономная некоммерческая организация "Исследовательский центр информационноправовых технологий" ISSN: 2312-5519 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38533356>

2. Kobilova N.S. Literary psychology and style theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука ISSN: 2308-4944eISSN: 2409-0085 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41328882>

3. Kobilova N.S. Benefits of using songs in teaching foreign languages to young learners <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>

4. Kobilova, N. S. (2022). Promotion of Cooperative Learning Through TPR Activities. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 24–26. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/32>

5. Rasulov, Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. центр научных публикаций ([buxdu.Uz](http://buxdu.uz)), 8(8).

6. Rasulov, Z. (2021). Reduction as the way of the language economy manifestation. Центр научных публикаций ([buxdu.Uz](http://buxdu.uz)), 1(1).

7. Д. С, Ўраева, М.И, Гадоева. (2022). Халқ Маросимлари Ва Уларга Алоқадор Жанрларда Соматизмларнинг Поэтик Ифодаси. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 16–19. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/30>

8. Osinova A.O. Фразеологизмы как отражение национально-культурной специфики страны изучаемого языка. Белорусский государственный университет, пр. Независимости 4, 220030, г. Минск, Беларусь

9. Kasares X. Введение в современную лексикографию. М.: Издательство иностранной литературы, 1958.

10. Teliya V. N. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

11. Dobrovolskiy D. O. Образная составляющая в семантике идиом // Вопросы языкознания. 1996. №1 (71-93)

12. Maslova V. A. Lingvokulturologik tadqiqotlar: Ucheb. dlya stud. un-tov. — М.: Akademia, 2010. — 208

13. Kunin A. V. Zamonaviy ingliz frazeologiyasi kursi: Xorijiy tillar fakulteti talabari uchun o'quv qo'llanma. — М.: Feniks, 1996. — 381